

GIYOHVANDLIK VOSITALARI MUOMALASI VA ULARNI HUQUQIY TARTIBGA SOLINISHI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13505042>

Gayirov Fazliddin Sattorovich

Bojxona qo'mitasining Bojxona Instituti

Xalqaro aloqalar xizmati bosh inspektori

e-mail: fazli80@mail.ru

telefon: +998900266627

Annotatsiya

ushbu maqolada giyohvandlik vositalari bilan bog'liq umumiy ma'lumotlar, ularning noqonuniy aylanmasi uchun javobgarlik turlari haqida ma'lumot berilgan. Shu bilan birgalikda, hozirgi globallashuv sharoitida narkoekspansiyaning zararli illatlari, aholi turmush sharoitiga qanday salbiy ta'sir o'tkazishi statistik ma'lumotlar orqali bayon etilgan. Giyohvandlik vositalariga oid jinoyatlar uchun javobgarlik masalasiga alohida to'xtalib o'tilgan hamda bojxona organlari tomonidan giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish faoliyati batafsil yoritib berilgan.


Kalit so'zlar

giyohvandlik vositalari, narkobiznes, sun'iy tabletkalar, tasniflash, marixuana, bojxona organlari, javobgarlik turlari, jinoyat, psixotrop moddalar

Hozirgi zamonaviy globallashuv davrida siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa erishilgan yutuqlarga qaramasdan, narkobiznes, psixotrop moddalar aylanmasi, tashqi narkoekspansiya, yoshlarni narkotik moddalarni iste'moliga jalb qilish va tijoratini yo'lga qo'yish kabi XXI asr vabosi nomi bilan tanilgan zamonaviy geosiyosiy tahdid turlari dolzarbligicha qolmoqda va xalq farovonligi, milliy xavfsizlik, kelajak avlodning ma'nan yuksalishiga, jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy asoslariga hamon xavf solmoqda.

O'zbekiston Respublikasining geografik jihatdan joylashuvi, jahon mamlakatlari bilan bog'lovchi havo va transport infrastrukturasi jadal rivojlanib borayotganligi, Xitoy, Rossiya va Yevropa mamlakatlarida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar, hamda ularning analoglariga bo'lgan ehtiyoj va narkotiklar bilan bog'liq jinoyat hatti-harakatlarning yuqori daromad keltirishi kabi omillar Afg'onistondan narkotiklarni "shimoliy" yo'nalish orqali tranzit tarzida

olib o'tilishiga, Yevropa mamalakatlariga esa xalqaro pochta va kuryerlik jo'natmalari orqali olib o'tish metodlari samarali tarzda ishlab kelgan. Ularning asosiy oqimini quyidagi tasvirda ham ko'rish mumkin:



(1-rasm)

Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Narkotiklar va jinoyatchilik bo‘yicha boshqarmasi” ning ma’lumotiga ko‘ra, butun dunyoda voyaga yetgan shaxslarning 5 foizi giyohvandlik vositalarni iste’mol qilgan.


Opiylar giyohvand moddalar bilan bog‘liq og‘ir zararga, shu jumladan halokatli dozalariga eng katta hissa qo‘shadigan moddalar guruhi bo‘lib qolmoqda (2-rasm).¹¹⁹

Narkotiklarning noqonuniy savdosi xalqaro uyushgan jinoyatchilikning tarkibiy qismi, global jinoiy hodisa bo‘lib, bugungi kunda ko‘plab mamlakatlarni jiddiy tashvishga solayotgan muammoga aylandi. Eng xavfli noqonuniy savdo bilan shug‘ullanadigan jinoiy guruhlar faoliyati muayyan davlat hududidan chiqib, transmilliy xarakter kasb etmoqda.

Har yili giyohvandlikka aloqador jinoyatchilardan umumjahon miqyosida 100 mingga yaqin o‘qotar qurol olib qo‘yilmoqda. Bundan tashqari, 500 dan ortiq yashirin uchish va qo‘nishga mo‘ljallangan maydon aniqlanishiga qaramay, har kuni g‘ayriqonuniy yuk orilgan 300ga yaqin parvoz amalga oshiriladi.¹²⁰

¹¹⁹ UNODC, World Drug Report 2023 (United Nations publication, 2023) p. 3

¹²⁰ Калачев Б.Ф. Использование достижений НТР в деятельности наркосиндикатов. Материалы научно-практической конференции “Федеральный закон “О наркотических средствах и психотропных веществах” и актуальные проблемы противодействия незаконному обороту наркотиков”. – Москва. 2008,- 4с



(2-rasm)

Yuzaga kelgan vaziyat giyohvandlik vositalarni noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish mexanizmini, ularni xalqaro pochta va kuryerlik jo'natmalari orqali olib o'tishni bartaraf etish uslublarini, shu jumladan jinoiy-huquqiy asoslarini ham takomillashtirishni talab etmoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Giyohvandlik vositalari to'g'risida yagona Konvensiya" (1961y.), "Psixotrop moddalar to'g'risida Konvensiya" (1971y.) va "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy muomalada bo'lishiga qarshi kurash to'g'risidagi Konvensiya"lari (1988y.) bu boradagi xalqaro hujjatlarning negizini tashkil qiladi. Ushbu Konvensiyalarda xalqaro nazoratda turgan giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning ro'yxati belgilangan. Hozirgi kunda, 1999-yil 19- avgustdagi Birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining o'n beshinchi sessiyasida qabul qilinib, 2000-yil 1-yanvardan kuchga kirgan, O'zbekiston Respublikasining "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida"gi qonuni va ushbu qonunni amalga oshirish maqsadidagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015- yil 11-noyabrdagi 330-sonli Qarori bo'yicha tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida nazoratga olinadigan giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar ro'yxatlari" O'zbekiston Respublikasi hududida mazkur moddalarni amaliyotda

qo'llanilishi borasida asosiy me'yoriy hujjat bo'lib hisoblanadi. «Giyohvandlik vositalari», «Prekursorlar», «Psixotrop modda» degan atamalarning huquqiy ma'nosi quyidagi tahrirda bayon etilgan:


«Giyohvandlik vositalari – giyohvandlik vositalari ro'yxatlariga kiritilgan va O'zbekiston Respublikasida nazoratga olinadigan, kelib chiqishi sintetik yoki tabiiy moddalar, tarkibida giyohvandlik moddasi mavjud bo'lgan preparatlar va o'simliklar;

Prekursorlar – prekursorlar ro'yxatiga kiritilgan va O'zbekiston Respublikasida nazoratga olinadigan, giyohvandlik vositalarini, ularning analoglarini va psixotrop moddalarni tayyorlash uchun foydalaniladigan moddalar;

Psixotrop moddalar – psixotrop moddalar ro'yxatiga kiritilgan va O'zbekiston Respublikasida nazoratga olinadigan, kelib chiqishi sintetik yoki tabiiy moddalar».

Bugungi kunda xorijiy davlatlarda giyohvandlik va narkobiznesning kuchayib borishi natijasida kontrabanda yo'li bilan respublikamiz orqali Afg'oniston, Pokiston va Tojikistondan giyohvandlik vositalarini Rossiyaga va Yevropa mamlakatlariga olib o'tishga urinish holatlari qayd etilmoqda. Respublikada esa giyohvandlik oqibatida sodir etilayotgan jinoyatlar uchrab turibdi. Giyohvandlikka va narkobiznesga qarshi kurashish hayot taqozosi bo'lib qolmoqda. Narkotiklarni nazorat qilish milliy markazi O'zbekiston Respublikasida Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) 1961-yilgi "Giyohvandlik vositalari to'g'risidagi" Yagona Konvensiyasining 18-moddasi, 1971-yilgi "Psixotrop moddalar to'g'risidagi Konvensiya"ning 16-moddasi, 1988-yilda qabul qilingan "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy muomalasiga qarshi kurash to'g'risidagi Konvensiya"ning 12-moddasi talablari asosida ish yurituvchi milliy vakolatli organ hisoblanadi.

Narkotiklarni nazorat qilish milliy markazi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi strukturasi kiradi. Markaz o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Narkotik moddalar ustidan nazorat qilish Davlat komissiyasi bilan muvofiqlashtiradi, o'z vakolatlari doirasida ham milliy, ham xalqaro darajada tegishli vazirliklar, idoralar va muassasalar bilan o'zaro hamkorlik qiladi.



(3-rasm)

O'zbekiston Respublikasi Narkotik moddalar ustidan nazorat qilish bo'yicha Davlat komissiyasining 2021-yil 26-apreldagi 1-son bayoni bilan tasdiqlangan "2021-2025 yillarga mo'ljallangan giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasi va ularni suiiste'mol qilinishiga qarshi chora-tadbirlar dasturi" ijrosini amalga oshirib, litsenziatlarning giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursor muomalasi bilan bog'liq faoliyati davomida qonunchilik hujjatlari buzilishining oldini olish maqsadida narkotiklarni nazorat qilish faoliyati doirasida tegishli nazorat ishlari amalga oshiriladi.

Ta'kidlash joizki, kuchli ta'sir qiluvchi moddalarning o'zini iste'mol qilishdan ma'lum vaqt o'tgandan so'ng insonlarda eyforiya, ijobiy hissiyotlar paydo bo'ladi va belgilangan soatlardan so'ng o'z kuchini yo'qotadi. Kuchli ta'sir qiluvchi moddalar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-sentyabrdagi 818-son qarori bilan tasdiqlangan ro'yxatida keltirilgan. Yangi kuchli ta'sir qiluvchi moddalar esa inson organizmida xuddi yuqoridagidek hissiyotlarni beruvchi lekin qonuniy jihatdan belgilanmagan moddalar hisoblanadi. Bularga misol tariqasida hozirda tarqalayotgan "dorixona giyohvand vositalari» tarkibini ko'rishimiz mumkin: So'nggi paytlarda huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan "Tropikamid", "Selofen", "Regapen", "Tramadol", "Lirika" kabi dori

kuchli ta'sir qiluvchi dori vositalarining noqonuniy aylanmasiga qarshi olib borilayotgan kurashish fonida iste'molchilar orasida tarkibida "gabapentin" moddasi bo'lgan dori vositalari ommalashmoqda.

Giyohvandlikka qarshi kurashishning jinoiy-huquqiy asoslari orasida O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi asosiy o'rin tutadi. Undagi giyohvandlik bilan bog'liq jinoyatlarga aloqador moddalarini ta'kidlab o'tish lozim. Xususan, "Mastlik holatida sodir etilgan jinoyat uchun javobgarlik" (19-modda), "mastlik holatida yoki giyohvandlik vositalari, psixotrop yoxud kishining aql-idrokiga ta'sir qiluvchi boshqa moddalar ta'siri ostida jinoyat sodir etish" (56-modda "o" bandi), "Alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka yo'liqqan shaxslarga nisbatan tibbiy yo'sindagi choralarni qo'llash" (96-modda), "voyaga yetmagan shaxsni giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar iste'mol etishga jalb qilish" (127-moddasi 2-3 qismlari), kontrabanda (246-modda), "Taqiqlangan ekinlarni yetishtirish" (270-modda), "Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda egallash" (271-modda), "Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlab qonunga xilof ravishda tayyorlash, olish, saqlash va boshqa harakatlar qilish, shuningdek ularni qonunga xilof ravishda o'tkazish" (273-modda), "Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni iste'mol qilishga jalb etish" (274-modda), "Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar ishlab chiqarish yoki ulardan foydalanish qoidalarini buzish" (275-modda), "Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlamay qonunga xilof ravishda tayyorlash, egallash, saqlash va boshqa harakatlar" (276-modda)¹²¹ shular jumlasiga kiradi.

Ushbu me'yorlarda qaysi xatti-harakatlar jinoyat deb topilishi, og'irlashtiruvchi holatlar, ularga nisbatan tayinlanadigan jazo kabilar mustahkamlangan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining VIII bo'limida (atamalarining huquqiy ma'nosi) giyohvandlik vositalari, psixotrop modda, prekursorlar bilan bog'liq tushunchalarga ta'rif berilgan. Xususan: O'zR JKning XIX bobidagi (270-276 moddalar) jinoyatlarning obyektini giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar bilan muomala qilishdagi ijtimoiy munosabatlar, shuningdek aholi sog'lig'i tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona organi xodimlari mamlakat chegaralarida bevosita xizmat olib borish jarayonida huquqni muhofaza qiluvchi organlar orasida birinchilardan bo'lib giyohvand moddalar kontrabandasiga qarshi kurash olib borishadi. Xususan, BMTning Giyohvand moddalar va jinoyatchilikka

¹²¹ O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi <https://www.lex.uz/docs/111453>

qarshi kurashish boshqarmasi mintaqaviy vakolatxonasi sobiq rahbari Ashita Mittal xonim "26-iyun Xalqaro giyohvandlikka va giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanishiga qarshi kurash kuni" munosabati bilan o'tkazilgan tadbir davomida giyohvandlikka qarshi kurash yo'nalishida Bojxona qo'mitasi tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarni yuqori baholadi. O'zbekiston 2022 yil davomida huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan 2 tonna 232,9 kg giyohvandlik moddalari musodara qilingan.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, hozirgi kunda giyohvandlik global muammolardan biridir. Asr vabosi deb baholanayotgan "oq ajal" qanchadan-qancha insonlarning umriga zomin bo'layotgani, giyohvand moddalarni iste'mol qilishga odatlanish oqibatida nogiron, jismoniy va aqliy nuqsoni bor bolalar dunyoga kelayotgani jamiyatni tashvishga solmoqda. Og'uning quliga aylanib qolayotgan istemolchilarni to'g'ri yo'lga qaytarish davlat va jamiyat uchun foydalidir. Shunday ekan, oilalar tinchligi, farzandlar kelajagiga raxna solayotgan, jiddiy xavfga aylangan giyohvandlikka birgalikda qarshi kurashishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi // <https://www.lex.uz/docs/111453>
3. O'zbekiston Respublikasining Bojxona Kodeksi // <https://www.lex.uz/docs/2876354>
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2023-yil 20-fevraldagi "Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish va kontrabandaga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida" gi 2-son qaror <https://lex.uz/en/docs/-6404212>
5. O'zbekiston Respublikasining 1999-yil 19-avgustdagi "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida" gi 813-I-son qonuni. <https://lex.uz/ru/docs/-86044>
6. Oliy Sud Plenumining 2017 yil 28 apreldagi "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga oid jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida" gi 12-son qarori <https://lex.uz/docs/-3203265>